

BOSHLANG'ICH SINFLARDA RASMLAR ASOSIDA MATN TUZISHGA O'RGATISH

Azimova Davlatoy Botirjon qizi

Annotatsiya: Ushbu ish talabalar va yosh o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar sifatida tayyorlandi.

Tayanch so'z va Iboralar: ko'rish qobiliyati, yozish qobiliyati, tinglash qobiliyati, o'qish qobiliyati, rasm, jarayon, hayot, fikrlash, mulohaza, mushohada, idrok etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotmi bor-boricha qabul qiladilar. Oq rangni oq tarzda, qora rangni qora tarzda ko'radilar. Ular hayotning rango-rang ekanligini tasavvur ham qila olmaydilar, tushunib yetmaydilar. Shuning uchun ustozlar oldida katta vazifa yotadi. O'quvchilarda hayot va undagi sodir etilayotgan jarayonlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish asta-sekin yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yillar mobaynida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning ko'rish, tinglash, o'qish va yozish qobiliyatlarini o'stirishda rasmlarning o'rni kattadir. Sababai, bola bor narsani rasmda ko'ra oladi, nima yoki kim ekanligini bila oladi, fikrlaydi, so'zlay oladi.

O'qituvchi rasmlardan qanday foydalanishi mumkin?

Asosan, dars jarayonlarida, agar mavzuga oid bo'lsa yoki dam olish daqiqalarida, darsdan tashqari vaqtda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan shug'ullabish davrida, to'g'arak mashg'ulotlarida rasmlardan foydalanishlari mumkin.

Quyida misollar keltiramiz :

MAVZU: OILA

Savol: Kimlar oilamizda yashaydi?



Bobom



Buvim



Dadam
Kichkina ukam



Oyim



Amakim



Ammam



Opam



Akam



Men



Bu mening bobom.

- Bu kim?
- Bu mening bobom/
- Necha yoshda?
- Bobomning yoshi 74 da/
- Qayerda ishlaydi?
- Bobom nafaqada/
- Nima bilan shug'yullanadi?
- Tomorqada ishlaydi.
- Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi?
- Gazeta va jurnallarni o'qishni yoqtiradi.
- Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi?
- Bobom "Otalar so'zi" ko'rsatuvini ko'radi.
- Qaysi taomni yoqtiradi?
- U o'zi osh tayyorlaydi va oshni yoqtiradi.
- Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi?
- Ko'k choyni yaxshi ko'radi.
- Nimal;arga qiziqadi?
- Qadimgi tangalarni yig'adi.



Bu mening buvim

- Bu kim?
- Bu mening buvim/
- Necha yoshda?
- Buvim 70 yoshda.
- Qayerda ishlaydi?
- Buvim nafaqada/
- Nima bilan shug'yullanadi?
- Buvim to'qish va tikish bilan shug'ullanadi.
- Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi?
- Kitob o'qishni yoqtiradi.
- Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi?
- "Taqdirlar" ko'rsatuvini sevib tomosha qiladi.
- Qaysi taomni yoqtiradi?
- Mastavani yoqtiradi.
- Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi?
- Buvim choyni yaxshi ko'radi.
- Nimal;arga qiziqadi?
- Milliy bosh kiyimlarni yig'adi.



Bu mening dadam

- Bu kim?
- Bu mening dadam/
- Necha yoshda?
- dadam 42 yoshda.
- Qayerda ishlaydi?
- dadam shifokor, kasalxonada ishlaydi.
- Nima bilan shug'yullanadi?
- Sport bila shug'ullanadi.
- Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi?
- Xorij jurnallarini o'qiydi.
- Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi?
- "Millar" ko'rsatuvini sevib tomosha qiladi.
- Qaysi taomni yoqtiradi?

	-Qozon kabobni yoqtiradi. -Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi? - har tong kofe ichishni yoqtiradi. -Nimalarga qiziqadi? - Oilaviy fotosuratlarini yi'g'adi.
 Bu mening oyim	-Bu kim? -Bu mening oyim. -Necha yoshda? -40 yoshda. -Qayerda ishlaydi? -maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. -Nima bilan shug'yullanadi? -Rasmlar chizadi. -Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi? -She'r o'qishni yoqtiradi. -Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi? - "Oila maktabi" ko'rsatuvini yoqtiradi. -Qaysi taomni yoqtiradi? - Chuchvarani sevib iste'mol qiladi. -Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi? - Limonadni yaxshi ko'radi. -Nimalarga qiziqadi? - O'z chizgan rasmlarini tyig'ib boradi.
 Bu mening amakim	-Bu kim? - Bu mening amakim. -Necha yoshda? - 39 yoshda. -Qayerda ishlaydi? -U xisobchi, bankda ishlaysi. -Nima bilan shug'yullanadi? - Futbol o'ynab turadi. -Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi? - So'nggi yangiliklarni o'qishni yoqtiradi. -Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi? - "Qiziqarli yangiliklar" ko'rsatuvini ko'radi. -Qaysi taomni yoqtiradi? - Sho'rvani yoqtiradi. -Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi? - Yaxna choyni yoqtiradi. -Nimalarga qiziqadi? - markalarni yig'adi.

 Bu mening ammam	--Bu kim? -bu mening ammam/ -Necha yoshda? -37 yoshda. -Qayerda ishlaydi? - Firmada ish yurituvchi bo'lib ishlaydi. -Nima bilan shug'yullanadi? - Til o'rganish bilan shug'ullanadi. -Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi? - Rus tilida hikoyalar o'qishni yoqtiradi. --Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi? - "Tugun" ko'rsatuvini sevib tomosha qiladi. --Qaysi taomni yoqtiradi? - Lagmonni yoqtiradi, -Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi? - Sharbatni yoqtiradi. -Nimalarga qiziqadi? - Har xil suvenirlarni yig'ib boradi.
 Bu mening opam	--Bu kim? - Bu mening opam. -Necha yoshda? -20 yoshda/ -Qayerda ishlaydi? -U talaba. -Nima bilan shug'yullanadi? - Gimnastika bilan shug'ullanadi. -Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi? -ertak kitoblarni o'qishni yoqtiradi. --Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi? - Sport ko'rsatuvlarini ko'radi. --Qaysi taomni yoqtiradi? -mantini yoqtiradi. -Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi? -Mineral suvni yoqtiradi, --Nimalarga qiziqadi? -So'nggi moda jurnallarini yig'adi.



Bu mening akam

- Bu kim?
- Bu mening akam.
- Necha yoshda?
- 17 yoshda.
- Qayerda ishlaydi?
- Maktabda 10-sinfda o'qiydi.
- Nima bilan shug'yullanadi?
- Boks bilan shug'ullanadi.
- Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi?
- Hikoyalarni o'qishni yoqtiradi.
- Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi?
- "Bolalar sporti" ko'rsatuvini ko'rib boradi.
- Qaysi taomni yoqtiradi?
- Shashlikni yoqtiradi.
- Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi?
- Hamma ichimlikni yoqtiradi.
- Nimalarga qiziqadi?
- Mashhur bokschilar hayotiga oid ma'lumotlarni yig'ib boradi.



Bu men

- Bu kim?
- Bu men.
- Necha yoshda?
- 12 yoshdaman.
- Qayerda ishlaydi?
- 4 -sinfda o'qiyman.
- Nima bilan shug'yullanadi?
- Bobonga tomorqada yordam beraman.
- Nimalarni o'qishni yaxshi ko'radi?
- Bolalar shoirlarining she'rlarini yoqtiraman.
- Qaysi ko'rsatuvni yaxshi ko'radi?
- "Aqlvoy" va "Bolajon" ko'rsatuvlarini ko'raman".
- Qaysi taomni yoqtiradi?
- Tandirda yopilgan issiq somsani yoqtiraman.
- Qaysi ichimlikni yaxshi ko'radi?
- Men shaftoli sharbatini yoqtiraman.
- Nimalarga qiziqadi?
- Kitoblar yig'ishni yaxshi ko'raman.

Shu tarzda suhbat o'tkazilishi mumkin.

Bunda savollarga javob berib, o'quvchilar har bir oila a'zosi haqida matn tuzadilar.

Masalan:

Bizning oila.

Bizning oilada 9 kishi istiqomat qiladi.

Ular: Bobom, buvim, dadam, oyim, amakim, ammam, opam, akam va men.

Bobom va buvim nafaqada.

Dadam shifokor bo'lib kasalxonada ishlaydi.oyim o'qituvchi.


U maktab- da ishlaydi.

Amakim xisobchi, u bankda ishlaydi.

Ammam ish yurituvchi bo'lib firmada ishlaydi. opam talaba, universitetda o'qiydi.
Akam o'quv- chi, u 10-sinfda maktabda o'qiydi.
Men 4-sinfda o'qiyman.
Bizning oila katta va hamma bir-birini hurmat qiladi.
Shuningdek, har xil mavzuda rasmlardan foydalanish mumkin.
Masalan, nima nima uchun kerak?



O'qish uchun



Yozish uchun



Kiyish uchun




Oyoqqa kiyish uchun



Kiyish uchun



Soch tarash uchun



Yeyish uchun



Yeyish uchun

Shu tartibda rasmlardan turli xil savollarga javob olish uchun foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, rasmlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi.

Bolalar rasmlardagi tasvirlarni ko'rib, har bir narsa yoki shaxsning borligi, uning hayotdagi o'rnini, nima uchun kerakligi, va ulardan qanday foydalanish mumkinligini tushunib yetadilar. Rasmlar yordamida o'quvchilar o'qituvchini tinglaydilar, savollarga javob beradilar, bu bilan ular fikrlaydilar mulohaza qiladilar, yozma javob yozganlarida ularning yozma nutqi ham rivojlanadi.

Rasmlarni yosh xususiyatlariga va ish jarayoniga mos ravishda tanlash kerak bo'ladi.

Ko'proq ona tili fanining qoidalarini mustahkamlashda ham rasmlardan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Rasmlar o'quvchilar nutqini o'stirish bilan birga ularni mustaqil ravishda so'zlarni o'z o'rnida qo'llash orqali matn tuzish qobiliyatiga ega bo'lishida yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. 2-sinflar uchun Rus tili darsligi (o'zbek va boshqa tilda oqitiladigan maktablar uchun) 2022 yil, Toshkent.
2. 2-класс. Русский язык. Рабочая тетрадь. Тошкент 2025 год.
3. Дополнительные материалы.